



A PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE PROCESSES OF DESECULARIZATION AND REISLAMIZATION IN UZBEKISTAN IN THE MODERN PERIOD

Dildora Yusupova

Associate Professor, PhD

National University Uzbekistan of named after Mirzo Ulugbek

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: USSR, Central Asia, Uzbekistan, religion, Islam, secularization, desecularization, re-Islamization, modernization.

Received: 16.01.24

Accepted: 18.01.25

Published: 20.01.25

Abstract: The article examines the factors necessary to maintain a balance between religiosity and secularization in the modern world, in particular, it draws attention to such concepts as “secularization”, “desecularization” and “re-Islamization”. Also, in the historical-retrospective aspect, the processes of “secularization”, “desecularization” and “re-Islamization” are revealed, as well as the religious and political circumstances of Uzbekistan in the transition period.

O‘ZBEKISTONDA ZAMONAVIY DAVRDA DESEKULYARIZATSIYA VA REISLAMIZATSIYA JARAYONLARINING FALSAFIY TAHLILI

Dildora Yusupova

PhD, dotsent

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: SSSR, Markaziy Osiyo, O‘zbekiston, din, islom dini, sekulyarizatsiya, desekulyarizatsiya, reislamizatsiya, modernizatsiya.

Annotatsiya: Maqolada bugungi kundagi diniylik va dunyoviylik o‘rtasidagi muvozanatni ushlab turish uchun zarur bo‘lgan omillarga, xususan “sekulyarizatsiya”, “desekulyarizatsiya” va “reislamizatsiya” tushunchalariga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, “sekulyarizatsiya”, “desekulyarizatsiya” va “reislamizatsiya” jarayonlari O‘zbekistonning o‘tish davridagi diniy-siyosiy holatlari bilan tarixiy-retrospektiv planda ochib beriladi.

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ПРОЦЕССОВ ДЕСЕКУЛЯРИЗАЦИИ И РЕИСЛАМИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ В СОВРЕМЕННЫЙ ПЕРИОД

Дилдора Юсупова

Доцент, PhD

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: СССР, Средняя Азия, Узбекистан, религия, ислам, секуляризация, десекюляризация, реисламизация, модернизация.	Аннотация: рассматриваются необходимые для поддержания баланса между религиозностью и секуляризацией в современном мире, в частности, обращается внимание к таким понятиям как, «секуляризация», «десекюляризация» и «реисламизация». Также в историко-ретроспективном аспекте раскрываются процессы «секуляризации», «десекюляризации» и «реисламизации», а также религиозно-политические обстоятельства Узбекистана в переходный период.	В статье факторы,
--	--	---------------------------------

Kirish. Bugungi globallashuv davrida dunyoda g'oya va mafkuralar kurashi tobora keskin tus olib, milliy, diniy, madaniy, ijtimoiy-siyosiy xavflarning kun sayin jiddiy tus olishiga sabab bo'lmoqda. Davlatlarning geostrategik maqsadlariga putur yetkazuvchi, ularning taraqqiyotiga zarba beruvchi mafkuralarning kelib chiqish sababi hamda qay maqsadga yo'naltirilganligini o'rganish bugungi kun uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki, bugungi kunning muammolari o'tgan kunning holatlari bilan yuzaga chiqadi. Shu bois, o'tgan davrlarni tahlil qilish orqali hozirgi zamon muammolarini aniqlash, ularni bartaraf etish hamda kelgusida yangicha tusda davom etmasligi uchun strategik konsepsiyalarni ishlab chiqishga imkon tug'diradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu mavzuni yoritishda L.Medovoi, E.Bentley, L.Levitin, A.Malashenko, S.Semedov, O.Zdorovseva, V.Karpov, V.Odinochenko, Y.Baydarov, Sh.Ikramov, Sh.Aripov, D.Kamilov kabi olimlarning tadqiqot ishlariga e'tibor qaratilgan. Mavzuni yoritishda tarixiylik, qiyosiy tahlil kabi metodlardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Arab adabiyotida islom bilan bog'liq jarayonlar "reislamizatsiya" deb baholanadi [1. – C. 51]. Biroq, bu atama 1990 yillardan boshlab Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi o'tish davrida davlat va din munosabatlari masalasida vujudga kelgan jarayonlarga hamda qayta islomlashish holatiga nisbatan ham ishlatila boshlandi. "Aynan shu davrdan boshlab Yevropa olimlarini ham Markaziy Osiyoga qiziqishlari orta boshladi. Buni Sh.Ikramovning "XX asr oxirida Markaziy Osiyoda musulmonlar hayotida reislamizatsiya jarayoni" deb nomlangan maqolasida: "Bu davrda SSSR musulmonlarining turmush tarziga qiziqish sezilarli darajada ortdi. 1990-

yillarning boshida xorijiy olimlar O'rta Osiyodagi diniy vaziyat haqida bir qator tadqiqotlar e'lon qildilar. Xususan, Sh. Akiner, Adib Xolid va Yohan Rasanayagam asarlari nashr etildi. Ushbu asarlarda mintaqadagi islom va dunyoviylik, din masalasida davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, shuningdek, o'ziga xos xususiyatlari, ziddiyatlari va kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlar haqida so'z yuritiladi" [1. – C. 56]– degan fikrlari ham tasdiqlaydi.

Bundan salkam o'ttiz yil avval SSSRning parchalanishi oqibatida, uning tarkibidagi davlatlar qatorida O'zbekistonning ham ijtimoiy-siyosiy hayotida tub o'zgarishlarga sabab bo'luvchi mafkuralar kurashi avj oldi. Ana shunday mafkuraviy ta'limotlardan biri sifatida maydonga chiqqan "Islom davlati qurish" g'oyasi asnosida respublikada desekulyarizatsiya jarayoni yuz berdi.

Xususan, bu haqda Qirg'istonlik huquqshunos olim, professor Levitin Leonid Isidorovichning "O'zbekiston tarixiy burilish pallasida" deb nomlangan asarida XX asrning so'ngida dunyoviy davlatga qarshi diniy davlat qurish konsepsiyasini ilgari surgan aqidaparastlarning g'oyalari ochib beriladi. Chunonchi, "O'zbekistonda islomning yashil bayrog'i ostida oxlokatiya avj oldi. Bu borada 1991-yilning oxirida Namanganda sodir bo'lgan voqealar haqida gapirmay bo'lmaydi. Dekabr oylarining birida diniy aqidaparastlar boshchiligidagi olomon sobiq Namangan viloyat partiya qo'mitasi binosini egallab olishdi. Zal markazida "Yashasin Islomiy davlat!" degan yozuv bitilgan ulkan banner bor edi. Aynan shu shior ostida bir necha soat davom etgan miting boshlandi va to'xtamadi. Rasmiylar bajarishi kerak bo'lgan beshta shart ilgari surildi. *Birinchi* shart - Karimov bu yerga kelishi kerak. *Ikkinchidan*, u Qur'on ustida islomga bay'at qilishi va mana endi islom davlatini e'lon qilishi kerak. *Uchinchidan*, barcha musulmonlar masjidlariga borishlari shart bo'lishi, jumladan, davlat rahbarlari ham xalq bilan birga namoz o'qish majburiy holga aylanishi kerak. *To'rtinchidan*, juma kunini ishlanmaydigan kun deb e'lon qilish. *Beshinchi* shart esa zudlik bilan diniy maktablar ochish" [2. – C. 37-38] – degan shartlar qo'yilishida ham reislamizatsiya hamda desekulyarizatsiyaning ko'rinishlari namoyon bo'ladi. Markaziy Osiyoda 1990 yillar boshida ilk paydo bo'la boshlagan radikal islomiy siyosiy tashkilotlar ("Adolat", O'zbekistonda "Islom lashkarlari", Tojikistonda Islom Uyg'onish partiyasi)ning shakllanishida ham tashqi kuchlar salmoqli rol o'ynagan. Bu tashkilotlar reislamizatsiya jarayonini tezlashtirib, birinchi navbatda O'zbekiston hamda Tojikistonga ta'sir ko'rsatgan [3. – C. 80]. "Arab adabiyotida islom bilan bog'liq jarayonlar "reislamizatsiya" sifatida baholanadi" [1. – C. 51]. Reislamizatsiya - "qayta islomlashtirish" degan ma'noni beradi. Shu bois, O'zbekiston va Tojikistonda qayta islomlashtirish ko'rinishida bo'lib o'tgan voqealarni aynan reislamizatsiyaga intilish deyish mumkin. U yerdagi jarayonni esa desekulyarizatsiya deyiladi.

Desekulyarizatsiya jarayonini to'g'ri anglash uchun esa, avvalo, sekulyarizatsiya tushunchasini tahlil qilish o'rinlidir. "Sekulyarizatsiya" – bu atama XIX asrda rasmiy ravishda

dunyoviy jamiyatga asos solgan ingliz erkin fikr yurituvchisi J. Xoliok tomonidan qabul qilingan. Ushbu jamiyat faoliyati adolatli dunyo tartibini va individual rivojlanish uchun axloqiy dasturni o'rnatishga qaratilgan bo'lib, u diniy ta'sirsiz asosiy insonparvarlik muammolarini hal qiladi [4]. Ushbu atamani din sotsiologiyasi bilan shug'ullangan ispaniyalik olim Xose Kazanova "dunyodagi turli xil kontekstlarda va nizolarda "diniylik" va "dunyoviylik"ni tashkil etadigan shakllarning ko'pligi to'g'risida baxslashganda birinchi bo'lib "sekulyarizatsiya" iborasini ishlatgan" [5. – P. 18].

Islahotchilarning boshlang'ich nuqtasi - Islomda sekulyarizatsiya G'arbda sekulyarizatsiya bilan bir xil emas, degan iddaoni ta'kidlaganlari. Birinchidan, turli tarixiy sharoitlar tufayli, ikkinchidan (va bu eng muhimi) - agar Yevropa uchun sekulyarizatsiya dinni davlatdan ajratish, shuningdek, uni davlat tomonidan nazorat qilish degani bo'lsa, musulmon dunyosi uchun bu faqat diniy hayotni tartibga soluvchi xulq-atvor standartlari va jamiyat va davlat hayotini belgilaydigan tamoyillar bilan farqlanar edi [6. – C. 137].

O'zbekistonlik faylasuf Davron Kamilov esa, "“desekulyarizatsiya” deb nomlangan jarayon aslida sekulyarlashuv tadrijiy ta'siri natijasida muhim ahamiyat kasb etib borayotgan vijdon erkinligining amalda o'z aksini topishi bilan bog'liq jarayonning ajralmas qismidir" [7. – B. 34]– deydi.

Bizningcha bu atama butun dunyoda o'tish davrida sodir bo'lgan dinning tanazzulga yuz tutishi va uning ijtimoiy ahamiyatining pasayishi bilan bog'liq bo'lgan jarayonga nisbatan ham ishlatiladi. Aslida sekulyarizatsiya din davlatdan ajratilgan davlatga nisbatan ifodalangan tushuncha bo'lsa-da, biroq SSSRda bu tendensiya o'zgacha tarzda ishlay boshlaganligi, din umuman mavjud bo'lishini istamaydigan siyosiy kuchlarning qo'lida qurolga aylandi va sekulyarizatsiya niqobi ostida ateistik dunyoqarashni shakllantirdi. Aholi ongida sekulyarizm bu dahriylik, diniy qadriyatlarga to'siq degan tushunchani paydo qildi.

XX asr oxirlariga kelib esa, ateistik dunyoqarash o'rmini diniylikka o'tish, ya'ni unga ko'r-ko'rona ishonish jarayoni egallay boshladi. Aholi dunyoqarashida, ayniqsa yoshlar ongida dinga qiziqish yuqori darajaga ko'tarila bordi. Aynan, shu davrda SSSRda sekulyarizatsiya ikki tomonlama mavjud edi: birinchisi, G'arbda bo'lgani kabi, diniy sohani boshqalardan ajratib olish va dinni shaxsning shaxsiy ishiga aylantirishning tabiiy (modernizatsiya natijasida hosil bo'lgan) jarayonini anglatdi; ikkinchidan, Kommunistik partiya an'anaviy dinlarni kommunizmning "kvazi diniga" almashtirishga intildi [8. – C. 191].

Natijada, SSSR tarkibidagi davlatlar qatori O'zbekistonda ham 1991 yillarda din, e'tiqod bilan bog'liq muammolar siyosiy darajaga ko'tarildi. Ya'ni, O'zbekistonning o'tish davrida dinning insonlar hayotida hamisha mavjud bo'lib kelganligi yangi tendensiyani vujudga keltirdi. Bu tendensiya "desekulyarizatsiya" deb yuritildi.

Desekulyarizatsiya din jamiyatga qaytadan qaytishi zarurmi yoki zarur emasmi, diniy davlat qurish afzalmi yoki dunyoviy davlat, din jamiyatga kerakmi yoki alohida shaxning o'ziga tegishli bo'ladimi degan savollarni ko'taradi. Mana shu savollarga javobni olishda desekulyarizatsiya jarayoni sodir bo'lib, oqibatda diniy-siyosiy vaziyat paydo bo'ladi. Aynan, shunday vaziyatni bizning davlatimiz O'zbekiston ham boshidan kechirdi.

O'zbekistonda esa, o'tishga davriga kelib, diniy jarayonlar ham boshqacha dinamika kasb eta boshladi. Bu dinamika esa, desekulyarizatsiya tendensiyasi ko'rinishida sekulyarizatsiyaga qarshi kuch sifatida namoyon bo'la boshladi. Xususan, aynan sekulyarizatsiya tendensiyasiga qarshi tendensiya sifatida "de" so'zining vujudga kelishi ushbu atamaning biri ikkinchisiga zid ekanligini ko'rsatadi.

"Desekulyarizatsiya – bu bizning zamonaviyligimiz tabiatini aks ettiruvchi jarayon. Bunga quyidagi misollarni keltirish mumkin: islom fundamentalizmining tarqalishi, sobiq sotsialistik mamlakatlarda dinning tiklanishi, shuningdek, Yevropaning ijtimoiy va madaniy makonida diniy tashkilotlarning mavjudligini kuchaytirish" [9. – C. 191] – deydi Belarusiyalik faylasuf Odinochenko Viktor Aleksandrovich. Shuningdek, u desekulyarizatsiyani yanada teranroq tushuntirishga urinib:

"Bizga tanish bo'lgan marksistik terminologiyadan foydalanib, inkorni inkor etish sxemasi o'zini taklif qiladi: sekulyarizatsiya – bu jamiyatning diniy holatini yengib o'tish, desekulyarizatsiya – bu sekulyarizatsiyaga qarshi qaratilgan jarayon" [9. – C. 190] – desa, rossiyalik faylasuf Zdorovseva Olga Valerevna esa, "Desekulyarizatsion jarayonda institutsional din yana o'zini ijtimoiy makonda faol ravishda e'lon qilishi va shu bilan birga sekulyar jamiyat ongi uchun yanada ko'rinadigan va ahamiyatli bo'lib, uni ongli ravishda diniy konvertatsiya qilish jarayoni bezovta qilishi mumkin" [10. – C. 23]– deydi.

Anchadan beri bir-biriga qarama qarshi bo'lgan "din/an'ana" va "dunyoviy/zamonaviy" ikkala me'yoriy ikkilikni qo'llab-quvvatlash tendensiyasi mavjud. ...Dunyoviylik va zamonaviylikning bu tenglamasi olimlarda dinning ijtimoiy va shaxsiy hayotda tanazzulga, shuningdek, diniy muassasalarning tanazzulga uchrashiga keng tarqalgan ishonchni keltirib chiqardi [11. – P. 87-88].

Lekin shunga qaramay, bizning fikrimizcha, desekulyarizatsiya tendensiyasi dioxotomiya ko'rinishiga ega:

Birinchisi, shariat qonun-qoidalari asosida mavjud bo'lgan islom, ya'ni an'anaviy islomiy jamiyatiga qaytish;

Ikkinchisi, zamonaviy davrdagi musulmonlarga qarshi reaksiya islomiy jamiyatga qaytish hisoblanadi.

Yuqoridagi ikki jarayon ham zamonaviy davrga qarshi, modernizatsiyalashgan musulmonlarni qabul qilishni istamaydigan hamda ayni paytda G'arb modernizmiga qarshi agressiyani qo'zg'atuvchi harakatlar majmui desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, davlat va din munosabatiga agressiyani paydo qiluvchi sabablardan biri ijtimoiy fenomenning siyosiylashuvi hisoblanadi. "Ijtimoiy fenomenning siyosiylashuvi ikki holatda: birinchidan, unga nisbatan notabiiy, zo'ravonlik bilan izdan chiqarish amaliyoti sodir qilinganda, ikkinchidan, undan siyosiy maqsadlarni amalga oshirish yo'lida foydalanilgan paytda ro'y berishi mumkin" [12. – B. 51].

Darhaqiqat, aynan bu ikki holat O'zbekistonning o'tish davrida ham kuzatildi. An'anaviy islomiy davlat qurishga intiluvchi siyosiy kuchlar dindan siyosiy maqsadlar yo'lida foydalanishga urinib, insonlar ongidagi mafkuraviy bo'shliqni o'zlarining xom-hayollaridagi islomiy davlatlariga ishonitirish yo'lida ijtimoiy fenomen siyosiy tus olib, shu kunga qadar sekulyaristik davlat hisoblangan O'zbekistonda desekulyaristik harakatlarni jonlantirdi. Xususan, desekulyarizatsiya ortga qaytishga intilish bo'lib, u zamonaviylashish, ya'ni modernizatsiyalashuvga qadar bo'lgan davrni yoqlaydi hamda an'anaviy davlatga qaytishni qo'llab-quvvatlaydi.

"Modernizatsiya nazariyasi tarixning chiziqli talqini sharoitida ishlab chiqilgan. Odatda modernizatsiya an'anaviy jamiyatdan zamonaviy jamiyatga o'tish sifatida qaraladi. Shunday qilib, unda hozirgi zamon o'tmishga qarshi turadi.

Shu munosabat bilan biz o'z davrimizning o'ziga xos xususiyatlarini sanab o'tamiz. Qoida tariqasida, bularga sanoat rivojlanishi, tezlashtirilgan urbanizatsiya, umumjahon savodxonligini rivojlantirish, demokratlashtirish va sekulyarizatsiya kiradi" [9. – C. 191].

Sekulyarizatsiya aslida modernizatsiyaga yo'l ochib, dinning zamonaviy jamiyatda ham hamisha mavjud bo'lishiga imkon tug'diradi. Uni noto'g'ri yo'lga burish yoxud ba'zi davlatlarning manfaatlari yo'lida foydalanish unga qarama-qarshi holatni tug'diradi. Bu xususda, "desekulyarizatsiya" atamasi modernizatsiya, zamonaviylik, ya'ni dunyoviylik diniylikni eskilik ekanligini ko'rsatadi degan fikrlarga tanqidan "garchi dunyoviy jamiyatlar ushbu atamadan foydalanishni dinning qaytishi deb cheklansalar-da, 1999 yil sotsiolog Piter Berger dunyoda dinning hamisha hayotiylikini va uning qaytishini tavsiflash uchun "desekulyarizatsiya" atamasini kiritadi" [5. – P. 117-118]. Avstriyalik sotsiolog din davlatdan ajratilgan bo'lsa-da, u hamisha insonlar ongida mavjud bo'lganligini, din vaqtinchalik o'z o'rnini dunyoviylikka bo'shatib berib, biroq payti kelib yana qaytarib olishi mumkinligini ta'kidlashga urinadi. Ana shu qaytarib olishga urinishi va urinish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-siyosiy va diniy-siyosiy vaziyatlar "desekulyarizatsiya jarayoni" deyiladi. Bunda sekulyarizatsiyaga qarshi dinning reaksiya qayta tiklanishi desekulyarizatsiya jarayonida ifodalanadi.

Sekulyarizatsiya va desekulyarizatsiya bir-biriga qarama-qarshi holatni namoyon qilsa-da, aslida bir-birini to'ldirib turuvchi jarayondir. "Desekulyarizatsiyaga dinlarning tiklanishi va ularning butun jamiyatga ta'sirining kengayishi bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy o'zgarish jarayoni sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv desekulyarizatsiyani qarshi sekulyarizatsiya deb talqin qilish mos keladi. Sekulyarizatsiyaga odatda ko'p qirrali ijtimoiy o'zgarish sifatida qaraladi, uning mavjudligi natijasida dinning jamiyatga ta'siri kamayadi" [13. – C. 121].

Dinning jamiyatga ta'sirini qanchalik kamaytirishga urinilmasin, u jamiyatdagi insonlar ehtiyojidan aslo kamaymaydi. Buni O'zbekistonda o'tish davrida paydo bo'lgan ma'naviy bo'shliqni din niqobi ostidagi siyosiy kuchlar tomonidan to'ldirishga urinilganligi ham ko'rsatdi. Desekulyaristik jarayonning paydo bo'lishiga ham aynan bir necha yillar davomida yetilib kelgan muammolar diniy fonda yuzaga chiqishi sabab bo'ldi. Chunki, 70 yillik sho'ro hukumatining siyosatini tubida o'zbek xalqining e'tiqodiy muammolari pishib yetilib, kishilar ruhida qaytadan dinga bo'lgan ehtiyoj shakllandi va 1991 yildan boshlab dinga qo'yilgan keskin devor olib tashlanadigan davr yetib kelganligi desekulyarizmni paydo qildi. Bu jarayon esa, dinni siyosiylashtirish tendensiyasida yanada yaqqol namoyon bo'ldi.

O'zbekiston o'zining yo'lini sekulyaristik davlat sifatida tanlashini istamagan siyosiy kuchlar diniy davlat qurish iddaosi bilan turli fitnalarni uyushtirishga urindi. Hatto, o'tish davrida o'z Prezidentlik lavozini bajarishga kirishgan O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimovga ham 1991 yilning dekabr oyida Namanganda yig'ilgan bir guruh aholi nomidan Tohir Yo'ldoshevning "Islom davlati qurish" konsepsiyasini taqdim etdi. Islom Karimov diniy e'tiqod masalasi huquqiy jihatdan ta'minlanishini tushuntirib, sekulyar davlat bu diniy dahriylikka quriladigan davlat emas, balki dunyoviylik negizida diniy e'tiqodni huquqiy ta'minlaydigan davlat ekanligini o'zining keyingi faoliyatlarida isbotlab berdi. O'tish davridagi ana shunday qaltis vaziyatlarda, ya'ni dinni siyosiylashtirishga uringan, aholida sekulyar davlatga qarshi noto'g'ri tafakkurni shakllantirgan kuchlarning harakatlari tufayli desekulyaristik jarayon yoshlar tafakkurida chalkashliklarni keltirib chiqardi. Natijada, xoinlik, vatanfurushlik kabi illatlar yoshlar dunyoqarashida barq urib, ularning qo'llari bilan ekstremistik harakatlar amalga oshirildi. Bunday harakatlarning O'zbekistonda amalga oshirilishiga sabab, birinchidan, sho'ro davridagi diniy e'tiqodga qo'yilgan cheklovlar bo'lsa, ikkinchisi, aholi ehtiyojida hamisha din omilining mavjud bo'lganligi hisoblanadi. Ana shu din omili ostida ustma-ust paydo bo'lgan siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy omillar korreksiyalanib katta muammoni keltirib chiqarishi oqibatida, din orqali barham berishdan boshqa chora yo'qligini ko'r-ko'rona tushingan yoshlar ongida chalkashliklar sodir bo'ldi. Oqibatda, yuqorida keltirib o'tilgan omillar tufayli O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida ham desekulyar jarayon vujudga keldi.

O'tish davrida "oldinga" yoki "ortga" kabi dinamikani ifodalaydigan sekulyarizm va desekulyarizm tendensiyalari integratsiya va dezintegratsiya jarayonlari bilan qo'shilib ketishi oqibatida, bu tushunchalarni yanada kengroq tushunishimizga imkon yaratiladi. Shu bois, O'zbekistonning o'tish davridagi ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan voqealar bitta fenomen ta'sirida vujudga kelmay, balki bir qancha omillar: dining jamiyatga qaytishi, aholida diniy bilimning pastligi, diniy tashkilotlarning faoliyat yuritmaganligi, din bilan bog'liq muammolarning o'sishi ta'sirida jadallashib bordi.

Umuman olganda, XIX asr boshlarida modernizm sekulyarizmni keltirib chiqargan bo'lsa, XX asr so'ngiga kelib, O'zbekistonda sekulyarizm modernizatsiyaga qarshi bo'lgan desekulyarizmni paydo qildi. Chunki, sekulyarizm o'tgan asrda dinning alohida faoliyat yuritishiga imkon beradigan qonuniyatlariga qarshi harakat qilganligi sabab, jamiyat aholisining ongida unga nisbatan reaksiya munosabatini yuzaga keltirdi. Oxir-oqibat sekulyarizm asl mohiyatini to'g'ri anglanmagan holatda dinning yana jamiyatga qaytishida modernizatsiyaga asoslangan sekulyarlikni qo'llash emas, balki din ustun bo'lgan jamiyatga intilishni ifodalaydigan desekulyar jarayon olib boradigan sakrallik ko'rinishidagi davlatga ehtiyoj ortib ketdi. Bu holat esa, O'zbekistonning mustaqillik davridagi ilk kunlarini yanada murakkablashishiga sabab bo'ldi.

Xuulosa. Yuqoridagi fikr mulohazalardan kelib chiqib aytganda, sekulyar davlatning aholisi musulmon bo'lsa, din siyosiy omil sifatida hamisha nazoratda bo'lishi lozimligini talab qiladi. Aks holda, davlatda desekulyaristik jarayon vujudga kelishiga sabab bo'luvchi omillar ko'lami kengayib, mamlakat taraqqiyotiga tahdid paydo qilishi mumkin. Ayni shunday jarayonlar SSSR parchalanib, O'zbekiston mustaqilligining ilk kunlarida aholi ma'naviy olamida paydo bo'lgan bo'shliq o'rnini din bilan to'ldirishga uringan ekstremistik guruhlar faoliyatida namoyon bo'ldi. Shu bois, bugungi tahlikali zamonda O'zbekiston yoshlarining dunyoqarashiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, yangicha g'oyalar bilan o'tgan davrning g'oyalarini ilgari surishga da'vat etuvchi din shiori ostiga berkingan noqonuniy guruhlarining iddaolariga o'zlarining sog'lom ma'naviy e'tiqodlari bilan javob beradigan va diniylik va dunyoviylik tamoyillarining mohiyatini to'g'ri anglay oladigan yoshlarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Икромов Ш.И. Реисламизация жизни мусульман Центральной Азии в конце XX в. // Россия и мусульманский мир. 2020. №4 (318).
2. Левитин Л. Узбекитан на историческом повороте: критические заметки сторонника Президента Ислама Каримова. - Москва: Вагриус, 2001.
3. Байдаров Е. Исламизация государств Центральной Азии: тенденции и перспективы (философско-политологический анализ). «21-й ВЕК», № 4 (29), 2013г.

4. Что такое секуляризация и десекуляризация? // https://studref.com/672654/kulturologiya/takoe_sekulyarizatsiya_desekulyarizatsiya
5. Karpov V., Svensson M. Secularization, Desecularization, and Toleration: Cross-Disciplinary Challenges to a Modern Myth. – New York: Palgrave Macmillan, 2020.
6. Малащенко А. Исламская альтернатива и исламистский проект / Ислам и секуляризм. - Москва: Весь Мир, 2006.
7. Камилов Д.З. Секуляришув жараёнининг ижтимоий-фалсафий таҳлили. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Тошкент: 2021.
8. Семедов С.А. Ислам в политике: идеология и практика. – Москва: Экон-Информ, 2009.
9. Одиноченко В.А. Десекуляризация как фактор модернизации современной Беларуси. / Известия Гомельского государственного университета имени Ф. Скорины, № 1 (118), 2020.
10. Здоровцева О.В. «Десекуляризация в современном Российском обществе: на примере православия». Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата философских наук. – Ростов-на-Дону: 2019.
11. Medovoi L., Bentley E. Religion, Secularism & Political Belonging. – New York: Durham and London, 2021.
12. Арипов Ш.И. Жамият тараккиётига диний радикализм таҳдидининг замонавий хусусиятлари (Мусулмон Шарки мисолида). Сиёсий фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т.: 2008.
13. Карпов В. Концептуальные основы теории десекуляризации. Журнал “Государство, религия, Церковь в России и за рубежом”, – Москва: “Дело”, 2012. № 2(30).